

2019-yilning yanvar-iyun oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Jami qurilish ishlari hajmi –
1997,2 mlrd. so`m

O`tgan yilning mos davriga
nisbatan –
120,8 %

Nodavlat mulkchiligidagi
tashkilotlar –
1884,2 mlrd. so`m

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar
–
113,0 mlrd. so`m

Joriy yilning yanvar - iyun oylarida Farg'ona viloyatida jami 1997,2 mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`shish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 217,2 mlrd. so`mni tashkil etdi.

O`tgan yilning mos davriga nisbatan o`shish sur`ati 2,5 martaga o`sgan bo`lsa jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan keskin oshib - 5,7 punktga oshgan.

Jami qurilish ishlari –
1 997,2 mlrd.so'm

Yirik qurilish tashkilotlari -
217,2 mlrd.so'm

Kichik va mikrofirmalar -
1 246,9 mlrd.so'm

Norasmiy sektorlar -
533,1 mlrd.so'm



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,4 %i to'g'ri keldi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 118,9 % ni tashkil etgan holda 1 246,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi jami qurilish ishlarining 26,7 % ni tashkil etdi va 533,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda 102,5 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Shuni ta'kidlash lozimki, joriy davrda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi **yangi bino va inshootlarni qurish** bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining 54,8 %i yoki 953,6 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy soha obyektlarini yaratishga qaratilgan.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlarining 2,5 %i yoki 44,0 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.



Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 21,4 %i yoki 344,7 mlrd. so'm yangi qurilish ishlariga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan jami qurilish ishlarining 35,2 %i yoki 583,8 mlrd. so'm yangi qurilish ishlari bo'yicha bajarilgan.



Faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari (mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 3,5 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga ko'paygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga ko'payib, 61,1 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga kamayib, 35,4% ni tashkil etdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlar qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 3,5 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,5 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 61,1 % (1,6 % punktga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 35,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga kamaydi.

Fuqarolik obyektlari qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 33,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 19,7 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 61,0 % (19,5 % punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi 6,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaygan.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 28,6 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 71,4 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,3 % punktga kamayish kuzatildi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari


| No | Shahar tumanlar | 2018 yil yanvar-iyun (mlrd, so'm) | 2019 yil yanvar-iyun (mlrd, so'm) | O'tgan yilga nisbatan (%) | Jamiga nisbatan ulushi (%) da |
|------------------------|-----------------------|---|---|---------------------------------|--|
| Viloyat bo'yicha jami: | | 1 401,7 | 1 997,2 | 120,8 | 100,0 |
| 1 | Farg'ona shahar | 304,2 | 432,1 | 120,7 | 21,6 |
| 2 | Qo'qon shahar | 154,7 | 192,8 | 106,0 | 9,7 |
| 3 | Quvasoy shahar | 110,7 | 164,8 | 126,5 | 8,3 |
| 4 | Marg'ilon shahar | 111,7 | 182,7 | 138,7 | 9,1 |
| 5 | Oltiariq tumani | 45,2 | 91,5 | 171,1 | 4,6 |
| 6 | Qo'shtepa tumani | 59,4 | 83,7 | 118,8 | 4,2 |
| 7 | Bag'dod tumani | 88,1 | 75,8 | 73,2 | 3,8 |
| 8 | Buvayda tumani | 39,8 | 52,2 | 110,3 | 2,6 |
| 9 | Beshariq tumani | 31,2 | 76,1 | 206,8 | 3,8 |
| 10 | Quva tumani | 60,4 | 99,1 | 138,7 | 5,0 |
| 11 | Uchko'prik tumani | 64,3 | 72,7 | 96,1 | 3,6 |
| 12 | Rishton tumani | 31,9 | 40,0 | 167,5 | 2,0 |
| 13 | So'x tumani | 25,0 | 24,9 | 72,1 | 1,2 |
| 14 | Toshloq tumani | 39,0 | 48,6 | 89,0 | 2,4 |
| 15 | O'zbekiston tumani | 27,8 | 37,6 | 79,0 | 1,9 |
| 16 | Farg'ona tumani | 95,4 | 42,3 | 51,0 | 2,1 |
| 17 | Dang'ara tumani | 56,1 | 129,9 | 130,0 | 6,5 |
| 18 | Furqat tumani | 33,8 | 57,6 | 143,6 | 2,9 |
| 19 | Yozyovon tumani | 22,9 | 92,8 | 343,9 | 4,6 |

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi
(jamiga nisbatan, % da)



O'z kuchi bilan bajarilgan jami qurilish ishlari hajmining eng yuqori hisyasi viloyatning Farg'ona shahrida kuzatildi va jami qurilish ishlari hajmining 21,6 % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida 8,3 % ni, Qo'qon shahrida esa 9,7% ni tashkil etdi. Shuningdek jami qurilish ishlari hajmida hisyasi kam bo'lgan tumanlar xususan, So'x tumanida jami qurilish ishlari hajmining 1,2 % i hamda O'zbekiston tumanida 1,9 % ni tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Hududlar bo'yicha qurilish ishlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori hisssasi viloyatning Yozyovon tumanida 343,9 % kuzatilib jami qurilish ishlari hajmining 4,6 % ni tashkil qildi. Beshariq tumanida 206,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 3,8 % ni, Dang'ara tumanida 195,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 6,5 % ni, Oltiariq tumanida 171,1 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 4,6 % ni, Furqat tumanida 143,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 2,9 % ni, Quva 138,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 5,0 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Marg'ilon shahrida o'sish sur'ati 138,7 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 9,1 % ni tashkil etdi. Quvasoy shahrida 126,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmining 8,3 % ni tashkil etdi

Aholi jon boshiga qurilish ishlari

| T/R | Hudud nomi | 2018 yil yanvar-iyun | | 2019 yil yanvar-iyun | |
|----------------------|--------------|------------------------|---------------------|------------------------|---------------------|
| | | Hajmi (ming so'mda) | O'sish sur'ati % | Hajmi (ming so'mda) | O'sish sur'ati % |
| Viloyat jami: | | 385,9 | 106,0 | 540,2 | 118,6 |
| 1 | Farg'ona sh | 1 091,9 | 87,0 | 1 516,2 | 118,4 |
| 2 | Qo'qon sh | 628,8 | 167,4 | 772,6 | 104,8 |
| 3 | Quvasoy sh | 1 221,9 | 105,3 | 1 791,1 | 125,0 |
| 4 | Marg'ilon sh | 489,3 | 118,1 | 787,7 | 137,2 |
| 5 | Oltiariq | 220,7 | 158,8 | 441,2 | 170,4 |
| 6 | Qo'shtepa | 324,6 | 142,6 | 449,0 | 117,9 |
| 7 | Bag'dod | 426,2 | 91,4 | 359,8 | 72,0 |
| 8 | Buvayda | 189,4 | 140,1 | 233,8 | 105,2 |
| 9 | Beshariq | 131,4 | 96,0 | 339,8 | 220,4 |
| 10 | Quva | 239,4 | 74,8 | 391,1 | 139,3 |
| 11 | Uchko'prik | 291,0 | 111,9 | 324,6 | 95,1 |
| 12 | Rishton | 156,7 | 100,7 | 202,0 | 109,9 |
| 13 | So'x | 333,3 | 105,7 | 325,3 | 83,2 |
| 14 | Toshloq | 220,9 | 124,8 | 245,4 | 94,7 |
| 15 | O'zbekiston | 120,5 | 83,8 | 160,6 | 113,6 |
| 16 | Farg'ona t | 457,9 | 124,2 | 202,4 | 37,7 |
| 17 | Dang'ara | 332,9 | 78,8 | 764,1 | 195,7 |
| 18 | Furqat | 296,2 | 125,4 | 497,7 | 143,2 |
| 19 | Yozyovon | 217,5 | 82,8 | 856,7 | 335,8 |
| | | | | | |

Subyektlar turlari bo'yicha qurilish ishlari tarkibi

(jamiga nisbatan %da)



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi
 "Investitsiyalar va qurilish statistikasi" bo'limi
 Nashr uchun mas'ul: U.Karimov
 Aloqa telefoni: (0373) 241-72-75